

UDK: 17.022.1:008-053.81(575.1)

MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING QONUNLARIMIZDA MUSTAHKAMLANISHI

Arziqulov Elboy Azim o'g'li

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0002-3543-9438>

e-mail: earziqulov94@gmail.com

***Annotatsiya:** ushbu maqolamida madaniyat tushunchasi, uning shakllanish bosqichlari, jamiyat hayotida tutgan o'rni shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va ma'rifat sohasini yanada rivojlantirish va ularni huquqiy jihatdan muhofaza qilish borasida qonchunchilik normalarida mustahkamlanishi haqida atroflicha fikrlar keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar,** madaniyat, millat, kultura, ma'naviyat, tarix, jamiyat, qonun, ta'lim, tarbiya, sivilizatsiya.*

ПОНЯТИЕ КУЛЬТУРЫ И ЕЕ УКРЕПЛЕНИЕ В НАШИХ ЗАКОНАХ

***Резюме:** в данной статье рассматривается понятие культуры, этапы ее становления, ее роль в жизни общества, а также дальнейшее развитие сферы культуры и просвещения в условиях Нового Узбекистана, ее закрепление в нормах предоставляется правовая защита.*

***Ключевые слова:** культура, нация, культура, духовность, история, общество, право, образование, воспитание, цивилизация.*

THE CONCEPT OF CULTURE AND ITS REINFORCEMENT IN OUR LAWS

ABSTRACT: *in this article, the concept of culture, the stages of its formation, its role in the life of society, as well as the further development of the sphere of culture and enlightenment in the conditions of New Uzbekistan, and its strengthening in the norms of legal protection are given.*

Key words: *culture, nation, culture, spirituality, history, society, law, education, upbringing, civilization.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Madaniyat - ajdodlar tafakkuri, bilimlari, ijodi va atrof-muhitga bo'lgan munosabatining mahsuli bo'lib, ming yillar davomida yaratilgan tajribalarni o'ziga singdirib, takomillashib borganligi, madaniyat rivojlanishi bilan millat va uning ma'naviy qiyofasi ham shakllanishi kabi masalalar tahlil etilgan. Madaniyat ijtimoiy hayotning tarkibiy va funksional jabhalarida ifodalanadi. Shu jihatdan jamiyat madaniyatni vujudga keltiradi. Jamiyatda vujudga kelgan madaniyat qanchalik murakkablashib boyib borsa, uning insonga va jamiyatga ta'siri mukammallashib hamda nisbiy mustaqilligi kuchayib boradi. Masalan, antik jamiyat allaqachon tarixga aylangan bo'lsada, uning madaniyati hozirgi kunda o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Yoki, biz bu davr madaniyatini o'sha vaqtdagiga nisbatan ko'proq bilamiz. Shuning uchun madaniyatga jamiyatning mahsuli, faoliyat uslubi sifatida qaralsada, har bir jamiyatni u yoki bu konkret madaniyatning shakllanish manbai tarzida ham qarash mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYA. (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Madaniyat haqidagi eng muhim ma'lumotlar xalqimizning qadimiy yodgorligi Avesto kitobi hamda antik davr mutafakkirlari asarlarida uchraydi. Sharq Uyg'onish

davri allomalari Beruniy, Forobiy, Ibn Sino ilmiy merosida ham madaniyat, uning inson hayotida tutgan o'rnini masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, "Islom falsafasining asoschisi Abu Nasr Farobiy: "Insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatlariga kelsak, bu fazilat tug'ma emasdir", deb ta'kidlagan. Mazkur fazilatlar ta'lim va tarbiya orqali shakllantiriladi. "Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir" [1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: Yangi asr avlodi 2018, -184 b.]. Demak, xalqlar va shaharliklar fazilatlarini ta'lim va tarbiya orqali, ya'ni ular hamjihat bo'lib yaratgan tartiblar, vositalar orqali madaniy makonni barpo etadilar. Madaniyat haqidagi fikrlar insonning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda, ya'ni oddiy tosh qurollardan foydalanib ov qilish, o'lja va mevalarni terib iste'mol qilish, ilk dehqonchilik bilan shug'ullangan va ilk shahar madaniyatini vujudga keltirgan davrlardayoq paydo bo'lmagan. Madaniyat tushunchasi dastlab atama sifatida vujudga kelgani bilan hali jamiyatning moddiy va ijtimoiy hayotini, odamning ongli mavjudot sifatidagi insoniylik qiyofasini anglatmas edi. Inson bunyodkorlik faoliyatining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini anglab yetish, inson qiyofasini shakllantirish, ya'ni uning ongi va tafakkuriga ta'sir etish orqali jamiyat manfaatlariga mos keladigan insonni shakllantirish zaruriyati paydo bo'lgan davrlarga kelib, "madaniyat" va "kultura" atamalarining mazmun-mohiyati o'zgaradi. Agar "madaniyat" va "kultura" atamalarining qo'llanish tarixiga e'tibor bersak, "madaniyat" arabcha "madina" so'zidan olinganligi va "shahar" degan ma'noni anglatishini ko'ramiz. "Kultura" so'zi esa, lotinchadan olingan bo'lib, "ishlov berish, parvarishlash" ya'ni tuproqqa va yerga ishlov berish"[2. Qoraboyev U. O'zbekiston Madaniyati. Tafakkur bo'stoni. – Toshkent, 2011. -3 b] kabi ma'nolarni anglatgan.

NATIJALAR. (PEZYJBTATY / RESULTS).

Hozirgi davrda sivilizatsiyalar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning rivojlanishi, kengayib borishi va ularning turli shakllarda namoyon bo'lishi bu hodisani yanada dolzarb mavzuga aylantirdi. Bir tomondan Sharq

sivilizatsiyasi va ikkinchi tomondan G'arb sivilizatsiyasi dunyoda o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida tinmay turli yo'llar bilan harakat qilmoqda. Shu sababli ham sivilizatsiyalarning dinamikasi, ijtimoiy taraqqiyot, jamiyatning evolyusion taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar ham sivilizatsiya hodisasini o'rganishga bo'lgan qiziqishni yanada oshirdi. Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda madaniyat tushunchasiga berilgan ta'riflarning aksariyati mazmunan bir-biriga yaqin. Ayrim manbalarda "madaniyat" lotincha "kultura" so'zidan olingan bo'lib, ta'lim-tarbiya, shu jumladan, "yerga dastlabki ishlov berish", ayrimlarida esa "madaniyat" – arabcha "madina" shaharlik degan ma'nolarni anglatadi"[3.Хоруженко К.М. Культурология-энциклопедический словарь. Ростов Дон: Феникс. 1997; Бекмуродов М. ва бошқалар. Социология. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002], - deb yozilgan. Madaniyat arabcha "madina" so'ziga "iyat" so'z yashovchi qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'lgan atama bo'lib, o'zbek tilida bu so'z "shaharga oid" ma'nosini anglatishiga ko'ra madaniyatning mazmun va mohiyatida ilm-fan, ma'rifat rivojiga xos tushunchalar dastavval odamlarning shahar turmush tarzida taraqqiy eta borganligiga ishora qiladi. Jahondagi juda ko'p xalqlar madaniyat tushunchasini yunon tilidan qabul qilingan "Kultura" atamasi bilan izohlab kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bizningcha, madaniyat inson ongli faoliyatining, aqliy salohiyati, ichki kechinmasi, dunyoviy tushunchalarining mahsulidir.

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Madaniyat va ma'naviyat sohasining qonunlarimizda mustahkamlanishini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi yo'nalishlarida ham o'z aksini topgan.[4. <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PF60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida], 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"[5. <https://lex.uz/> 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son

“O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida], 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[6. <https://lex.uz/> 2021 yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.], Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi 132-son “Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”[7. <https://lex.uz/> Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 11-martdagi 132-son “Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida] gi qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini hamda sohaga oid boshqa huquqiy normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalyotga tadbiiq etish asnosida Yangi O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlatni barpo etshiga asos bo‘lib xizmat qiladi. “Qonuniylikni mustahkamlashda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu har bir shaxsda qonunlarga, inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishni hamda huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirishni kun tartibiga eng asosiy masala qilib qo‘ymoqda”[8. <https://lex.uz/> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta‘minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ,2019-yil 13-dekabr, PQ-4551-son] -deb yozilgan mamlakatimiz rahbari qarorida. Dunyodagi aksariyat davlatlar asosiy qonunlarida har kimning davlat va jamiyatdagi huquqlari konstitutsiyaviy institut sifatida belgilangan bo‘lib, bu borada O‘zbekistonda konstitutsiyani mustahkamlashga va uning huquqiy asoslarini har tomonlama rivojlantirishga hamda takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu o‘rinda yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 52-53-61-65-moddalarida milliy, ma’naviy va madaniy qaryatlarimiz hamda ularning huquqiy muhofaza etilishi alohida-alohida mustahkamlab qo‘yilgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Madaniyat nafaqat insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklari yig'indisi, balki jamiyat taraqqiyotining mezonidir hamdir. Ya'ni, jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyatda gavdalanadi. Madaniyatni o'rganishda obyektiv qonuniyatlar, hodisalardagi sababiy bog'liqlik haqidagi an'anaviy tasavvurlardan foydalanmaslik ham mumkin. Madaniyat doimo inson bilan chambarchas bog'liq bo'ladi va usiz yashay olmaydi. Lekin voqelikning murakkab, yaxlit birligi sifatida u o'z rivojlanish qonunlarida va borliqqa nisbatan mustaqildir. U madaniy merosni o'zida mujassamlashtirgan konkret sotsial guruhlarning ma'naviy hayotiga nisbatan boyroq va chuqurroqdir. Madaniyat doimo qadriyatlarning eng yirik zahirasi, tajribalar xazinasini bo'lib qoladi. Insoniyat avlodlari undan foydalanadilar va unga o'z hissalarini qo'shadilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: Yangi asr avlodi 2018, -184 b.
2. Qoraboyev U. O'zbekiston Madaniyati. Tafakkur bo'stoni. –Toshkent, 2011. -3 b.
3. Хоруженко К.М. Культурология - энциклопедический словарь. Ростов Дон: Феникс. 1997; Bekmurodov M. va boshqalar. Sotsiologiya. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002 -156 b.
4. <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PF60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
5. <https://lex.uz/> 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida.
6. <https://lex.uz/> 2021 yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.
7. <https://lex.uz/> Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 11-martdagi 132-son "Yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.
8. <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. Toshkent sh.,2019-yil 13-dekabr, PQ-4551-son.